



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 23 may

№ 1796

Sudyalar oliy kengashi tomonidan qabul qilingan ayrim hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida

“O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari hamda Sudyalar oliy kengashining 2023 yil 23 maydagi xulosasiga muvofiq Sudyalar oliy kengashi tomonidan qabul qilingan quyidagi hujjatlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 22 maydagi 13/17-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish sho'basi to'g'risida”gi Nizom;

2. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 22 maydagi 13/17-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalar kasbiy tayyorgarligini tashkillashtirish sho'basi to'g'risida”gi Nizom;

3. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 22 maydagi 13/17-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalar oliy kengashining ijro etuvchi devoni to'g'risida”gi Nizom;

4. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 22 maydagi 13/17-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalar oliy kengashining Imtihon komissiyasi to'g'risida”gi Nizom;

5. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 234-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi va Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov muammolarini o'rganish tadqiqot markazi xodimlariga mansab darajalarini berish tartibi to'g'risida”gi Nizom;

6. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 236-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalar faoliyatiga xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining tavsifnomasi asosida baho berish mezonlari to'g'risida”gi Nizom;

7. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 237-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalarni navbatdagi muddatga tayinlash (saylash)da ularning oxirgi ish joylaridagi faoliyati va keng jamoatchilik fikrini hisobga olish to'g'risida”gi Nizom;

8. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 238-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalikka nomzodlarni zaxiraga kiritish mezonlari to'g'risida”gi Nizom;

9. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 241-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sudya tomonidan o'zi, turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari, egaligida bo'lgan mol-mulklari (ko'chmas mulk, avtotransport vositalari) va mulkiy majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish Tartibi;

10. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 242-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi hamda Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov muammolarini o'rganish tadqiqot markazi xodimlarining ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga undash holatlari to'g'risida"gi majburiy xabar berish Tartibi;

11. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 244-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sudyani ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan xulosa berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizom;

12. Sudyalar oliy kengashining 2017 yil 7 avgustdagi 272-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash Tartibi;

13. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 15 yanvardagi 468-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sudyalarning malaka hay'atlari tomonidan sud xodimlarini sudyalik lavozimiga zaxiraga tayyorlash to'g'risida"gi Nizom;

14. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 15 yanvardagi 469-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi va Oliy sud xodimlari tomonidan hududlarda xizmat safarida bo'lishning tashkiliy-axloqiy masalalariga oid Qoidalar;

15. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 29 yanvardagi 488-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlangan sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirish to'g'risida"gi Nizom;

16. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 29 yanvardagi 489-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sudlarda ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash to'g'risida"gi Nizom;

17. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 17 fevraldagi 520-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Ekspertlik tahliliy axborot guruhi to'g'risida"gi Nizom;

18. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 2 apreldagi 585-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sud raisligiga nomzodlarning yo'l xaritasini tegishli hududdagi faollar va keng jamoatchilikka taqdim etish tartibi to'g'risida"gi Nizom;

19. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 19 apreldagi 614-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sud raislarining (o'rinbosarlari) tayinlashda inobatga olinadigan mezonlari, ularni zaxirasini shakllantirish tartibi va ularga yuklatilgan vazifalari to'g'risida"gi Nizom;

20. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 25 apreldagi 619-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlar zaxirasida turgan shaxslarni, shuningdek sudyalarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish Dasturi;

21. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 14 sentabrdagi 799-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sud raisi va rais o'rinbosari lavozimlariga nomzodlar zaxirasini shakllantirish mezonlari va tartibi to'g'risida"gi Nizom;

22. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 14 sentabrdagi 800-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sudyani boshqa sudyalik lavozimiga qayta tayinlash tartibi to'g'risida"gi Nizom;

23. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 23 noyabrdagi 907-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sudyalik lavozimiga nomzodlar haqida jamoatchilik fikrini o'rganish Tartibi;

24. Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 23 noyabrdagi 908-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar korpusini shakllantirishga ko‘maklashuvchi komissiya to‘g‘risida”gi Nizom.

Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov